

NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNING SAYLOV HUQUQINI TA'MINLASHNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI

*Toshkent davlat yuridik univeriteti magistratura va sirtqi ta'lif fakulteti Davlat
boshqaruvi huquqi magistranti
Rayimberanova Dilxiroj Ravshonbek qizi*

ANNOTATSIYA: Ushbu tezisda nogironligi bo'lgan shaxslarning saylov huquqi va ularning saylov huquqini ta'minlash qonunchilik asoslarini takomillashtirish, Xalqaro tajriba asosida qonunchilikka andozalar kiritish, tizimni islohotlar yordamida takomillashtirish, qonuniy bo'shliqliklarga aniqlik kiritish haqida so'z yuritilgan. Sohani rivojlantirish uchun tizimli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Saylov, demokratiya nogironligi bo'lgan shaxslar, Konstitutsiya, konvensiya BMT, Kanada, AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya

KIRISH

Har bir fuqaroning saylov huquqiga ega bo'lishi va uni erkin amalgalashuvchi demokratik jamiyatning eng muhim mezonlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilanganidek, fuqarolarning saylov huquqi davlat tomonidan kafolatlanadi va teng huquqlilik prinsiplariga asoslanadi. Ammo bu huquqni amalda ta'minlashda, ayniqsa nogironligi bo'lgan shaxslar uchun, hanuzgacha qator muammolar mavjudligini ta'kidlash lozim. Ayni paytda saylov jarayonida nogironligi bo'lgan shaxslarning ishtiroki, ularning siyosiy hayotga faol jalb etilishi va o'z fuqarolik burchini to'laqonli ado etishlari davlatning inson huquqlariga sodiqligining bevosita ifodasidir. Shu bois, mazkur toifa fuqarolar uchun zarur sharoitlar yaratish, mavjud qonunchilikni takomillashtirish va xalqaro tajribalarni milliy qonunchilikka tatbiq etish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Xususan, mavjud normativ-huquqiy hujjatlar ko'rib chiqilib, ularni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish zarurati asoslanadi. Shuningdek, tizimdagি

huquqiy bo'shliqlar aniqlanib, ularni bartaraf etish yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bu orqali fuqarolarning teng huquqliliginin ta'minlashga, nogiron shaxslarning saylov jarayonida faol va erkin ishtirokini kafolatlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni shakllantirish maqsad qilinadi.

METODOLOGIYA

Ushbu ilmiy tadqiqot nogironligi bo'lgan shaxslarning saylov huquqini konstitutsiyaviy-huquqiy nuqtai nazardan tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, unda ilmiy asoslangan uslubiy yondashuvlar va amaliy yondashuvlar uyg'un holda qo'llanilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Saylov kodeksi", "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi" Konvensiya, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro shartnomalar tahlil qilinib, ularning nogironligi bo'lgan shaxslarning saylov huquqlarini qanday tartibga solishi o'rganildi. Kanada, AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya kabi ilg'or demokratik tizimlarga ega davlatlarning saylov qonunchiligidagi nogironlar huquqlarini ta'minlash mexanizmlari tahlil qilindi va O'zbekiston tajribasi bilan qiyoslab o'rganildi.

Saylov tizimi va nogiron shaxslar ishtirokini tashkil etuvchi barcha elementlar – konstitutsiyaviy huquqlar, institutlararo hamkorlik, tashkiliy-texnik choralar o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi. Konstitutsiyaviy huquq, inson huquqlari, saylov huquqi bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, maqolalari va monografiyalari tahlil qilinib, ularning qarashlaridan foydalanildi. Ushbu metodologik yondashuvlar orqali nogironligi bo'lgan shaxslarning saylov huquqini kafolatlash borasidagi mavjud qonunchilik bazasini tizimli tahlil qilish, xalqaro andozalarga mos takliflar ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL

Nogironligi bo'lgan shaxslarning saylov huquqlarini ta'minlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasida huquqiy asoslar mavjud bo'lsa-da, amaliyotda ularning to'liq va erkin ishtirokini ta'minlashda tizimli kamchiliklar kuzatilmoxda. Ushbu bo'limda milliy qonunchilik va xalqaro-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, ularning amaldagi tatbiqi bo'yicha baho beriladi.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 7-moddasida saylovchilarning teng huquqliligi prinsipi mustahkamlangan bo'lib, unda barcha fuqarolarning, shu jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslarning ham saylov huquqlari teng asosda amalga oshirilishi belgilangan. Biroq bu modda faqat formal tenglikni kafolatlaydi, nogironlar uchun zarur texnik, tashkiliy va axborot yengilliklari darajasini, ya'ni amaliy tenglikni ta'minlamaydi.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57 va 128-moddalarida fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirok etish huquqi va ushbu huquqlarning davlat tomonidan kafolatlanishi mustahkamlangan. Bu me'yorlar nogiron shaxslarning ham siyosiy jarayonlarda ishtirok etishini ko'zda tutadi. Ammo, nogironlarning saylovlarda to'liq ishtirok etishi uchun yaratilishi kerak bo'lgan infratuzilma, axborot vositalari va yondashuvlar qonunchilikda chuqr tartibga solinmagan. Natijada ushbu konstitutsiyaviy normalar to'laqonli amaliy natijalarni bermayapti.

Uchinchidan, "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonunning 30²-moddasida nogiron shaxslarning davlat boshqaruvida ishtirok etish, saylovlarda qatnashish huquqi tan olingan va davlat organlari bu borada qulay shart-sharoitlar yaratishi shartligi belgilangan. Biroq "qulay shart-sharoitlar" tushunchasi amaliyotda noaniq bo'lib qolmoqda, ularni belgilovchi aniq reglamentlar, texnik me'yorlar va ijro mexanizmlar mavjud emas.

To'rtinchidan, BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasining 4-moddasida davlatlar nogiron shaxslarning barcha huquqlarini to'liq amalga oshirishini ta'minlovchi qonunchilik choralarini ko'rishi shartligi aytilgan bo'lsa, 29-moddada esa nogironlarning saylovlarda mustaqil va teng qatnashishini ta'minlash bo'yicha aniq majburiyatlar belgilanadi. Bu norma davlatdan amaliy sharoit yaratishni – saylov punktlariga kirish imkoniyatini ta'minlash, maxsus vositalar (braille byulletenlar, imo-ishora tarjimonlari va h.k.) bilan ta'minlashni talab etadi. O'zbekiston bu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan bo'lishiga qaramay, milliy qonunchilik va amaliyotda bu talablarning to'liq joriy

etilmaganini ko'rish mumkin.

Biroq ushbu huquqlarning amaliy ta'minoti sust, qonunchilikda ijro mexanizmlari yetarlicha ishlab chiqilmagan, va mavjud normativ-huquqiy bazada bo'shliqlar mavjud. Bu esa nogironligi bo'lgan shaxslarning saylov jarayonida to'laqonli va erkin ishtirok etish huquqlarini cheklaydi.

NATIJA

O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 7-moddasida saylovchilarning teng huquqliligi prinsipi e'lon qilingan bo'lsa-da, amaliy tenglikni ta'minlaydigan maxsus normalar va texnik vositalar mavjud emasligi sababli nogiron fuqarolar ushbu huquqdan to'liq foydalana olmayapti. Konstitutsianing 57 va 128-moddalarida har bir fuqaroning, jumladan nogiron shaxslarning ham davlat boshqaruvida ishtirok etish va saylov huquqi davlat tomonidan kafolatlanishi belgilangan. Biroq ushbu kafolatlarning amaliy ta'minoti va ijrosi uchun maxsus infratuzilma, moslashtirilgan xizmatlar va qonunchilikda aniq reglamentlar yetarli emas.

"Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Qonunning 30²-moddasi nogiron shaxslarning saylov huquqini e'tirof etadi va davlat organlariga qulay shart-sharoitlar yaratish majburiyatini yuklaydi. Ammo bu modda amalda samarali mexanizmlar bilan ta'minlanmagan, "qulay shart-sharoit" tushunchasi noaniq qolmoqda. BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasining 4 va 29-moddalari nogironlarning saylov jarayonida teng va mustaqil qatnashishini ta'minlash bo'yicha davlat zimmasiga aniq majburiyatlar yuklaydi. O'zbekiston ushbu konvensiyani ratifikatsiya qilganiga qaramay, milliy qonunchilikda bu talablarning aksariyati to'laqonli implementatsiya qilinmagan. Amaliyotda nogiron fuqarolar uchun saylov uchastkalariga jismoniy kirish imkoniyati, maxsus axborot texnologiyalari, braille byulletenlar, tarjimon xizmatlari kabi yondashuvlar mavjud emas yoki cheklangan. Bu esa qonuniy huquqning to'liq amalga oshishini sezilarli darajada qiyinlashtiradi. Nogiron fuqarolarning saylov jarayonidagi ishtirokini tartibga soluvchi qonunchilikda aniq, majburiy, bajarilishi

kafolatlangan me'yorlar yetishmaydi. Ko'plab qoidalar umumiy, deklarativ tusga ega bo'lib, amaliy ijroda samarali emas. Lekin hozirgi 2025-2030- yillarda nogironligi bo'lgan shaxslarga e'tibor kuchayishi nazarda tutilgan qator qonun loyihalari ishlab chiqilmoqda.

TAKLIF VA TAVSIYALAR

Nogironligi bo'lgan shaxslarning saylov huquqini ta'minlash bo'yich quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Saylov kodeksiga o'zgartishlar kiritish zarur, xususan nogiron shaxslar uchun saylov uchastkalarida maxsus sharoitlar yaratish bo'yicha aniq va majburiy normalar belgilanmog'i lozim.
2. "Qulay shart-sharoitlar" tushunchasi qonunchilikda aniq reglamentlanishi va ularning minimal talablari (jismoniy kirish imkoniyati, braille yozuvi, tarjimon, mobil komissiya va h.k.) belgilanishi lozim.
3. Nogironlar uchun moslashtirilgan saylov infratuzilmasini bosqichma-bosqich joriy etish: nogironlik aravachasida harakatlanuvchilar uchun rampalar, eshitish yoki ko'rish muammosi bo'lganlar uchun texnik vositalar.
4. Axborot va huquqiy savodxonlik bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilishi kerak, nogiron fuqarolar o'z saylov huquqlari va undan foydalanish tartibi to'g'risida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishlari lozim.
5. Xalqaro tajribalarni o'rganib, milliy qonunchilikka implementatsiya qilish muhim. Xususan, Kanada, AQSh va Skandinaviya davlatlarining inklyuziv saylov tizimlari model sifatida olinishi mumkin.
6. Nogiron shaxslarning o'zlari ishtirok etadigan maslahat kengashlari, komissiyalar shakllantirilib, ularning ehtiyoj va fikrlariga asoslangan holda siyosiy qarorlar qabul qilinishi yo'lga qo'yilishi lozim.

O'zbekistonning xalqaro majburiyatlariga javob beradi, ammo "qulay shart-sharoitlar" iborasi umumiy bo'lib qolmoqda. Uni ijro etuvchi aniq mexanizm

Saylov binolarining nogironlar aravachasiga mos bo'lishi

Braille yozuvidagi byulletenlar mavjudligi;

Ularni kuzatib boruvchi yordamchi shaxslar uchun ruxsat va yo'riqnomalar;

Mobil saylov komissiyalari tashkil etilishi zarurdir.

XULOSA

Nogironligi bo'lgan shaxslarning saylov huquqini ta'minlash masalasi demokratik jamiyatda inson huquqlari sohasidagi eng dolzarb yo'naliishlardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Saylov kodeksi va "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Qonun hamda xalqaro-huquqiy hujjatlar mazkur shaxslarning siyosiy jarayonlarda ishtirok etish huquqini tan oladi va ularni himoya qilishni nazarda tutadi. Ammo tahlillar shuni ko'rsatdiki, amaldagi qonunchilikda mavjud normalar ko'pincha umumiy xarakterga ega bo'lib, nogiron shaxslarning saylovda real va erkin ishtirokini ta'minlaydigan aniq, texnik va tashkiliy mexanizmlar bilan mustahkamlanmagan. Xalqaro tajriba esa ushbu sohada qonunchilik va amaliyot uyg'unligining naqadar muhimligini ko'rsatadi.

Shu bois, nogiron fuqarolarning konstitutsiyaviy saylov huquqlarini chinakam ta'minlash uchun davlat tomonidan tizimli yondashuv va chuqr islohotlar talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-sон // <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari

2. O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.06.2019-y., 03/19/544/3337-son; 09.02.2021-y., 03/21/670/0089-son // <https://lex.uz/docs/-4386848>
3. O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida" Qonuni, 15.10.2020 yildagi O'RQ-641-son // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.10.2020-y., 03/20/641/1389-son //<https://lex.uz/docs/-5049511>
4. Nogironlar huquqlari to'g'risida Konvensiya // <https://lex.uz/docs/-5501227>